O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60810900 – Agronomiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent - 2026

O‘zR OTFIV
Buyruq № 357
2026 yil “22” 08

ISHLAB CHIQILGAN:

- Toshkent davlat agrar universitеti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026 yil «22» 08 dagi 357- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		Bet
1.	*60810900-Agronomiya* bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....….....	4
1.1.1.	*60810900-Agronomiya* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talabining qo‘llanilishi……	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	*60810900-Agronomiya* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi …….....	4
1.2.1.	*60810900-Agronomiya* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	*60810900-Agronomiya* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari	4
1.2.3.	*60810900-Agronomiya* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	*60810900-Agronomiya* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari	5
2.	*60810900-Agronomiya* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga talablar	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	10
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	10
2.3.2	*60810900-Agronomiya* ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	10
2.3.3.	*60810900-Agronomiya* bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi.....	10
	Bibliografik ma’lumotlar	13
	Kelishuv varag‘i.....	14

1. *60810900-Agronomiya* bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60810900-Agronomiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, sirtqi va kechki ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi shakllarida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. *60810900-Agronomiya* ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanlishi.

Malaka talabi *60810900-Agronomiya* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma’sul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor – o‘qituvchilari;

– ta’lim yo‘nalishining o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

–ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta’lim tashkilotini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

– oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. *60810900-Agronomiya* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi

1.2.1. *60810900-Agronomiya* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

60810900-Agronomiya ta’lim yo‘nalishi – “Qishloq xo‘jaligi” ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, u yer, suv, energetika va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanish hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va yetishtirishda zamonaviy resurstejamkor innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish jarayonlarini maqbullashtirish, qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligi va yetishtirilayotgan mahsulot sifatini oshirish, kasbiy faoliyatida ishlab chiqarish vositalardan oqilona foydalanish usul va uslublari yig‘indisini o‘z ichiga oladi.

1.2.2. *60810900-Agronomiya* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, ishlab chiqarish boshqarmalari va boshqalar;

– yer, suv, energetik va moddiy-texnika resurslari, dala ekinlari va ularning navlari, urug‘lari, mahsulotlari; kimyoviy va biologik vositalar, texnik asbob-uskunalar, qishloq xo‘jalik texnikalari, agrotexnik tadbirlar; dehqonchilikda qo‘llaniladigan agrotexnik jarayonlar, dala ekinlarini yetishtirish texnologiyasi; qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirish bo‘yicha texnologik xaritalarni tuzish; ilmiy-tadqiqot jarayonlari; agrosanoat majmui korxonalari, tashkilotlar, agroklasterlar, kooperatsiyalar, fermer xo‘jaliklarining boshqaruv tizimlari va jarayonlari.

60810900-Agronomiya ta’lim yo‘nalish bo‘yicha bakalvriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish

bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi. Bakalavriatning professional ta’lim yo‘nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. *60810900-Agronomiya* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati.
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- loyiha-texnologik faoliyat.

1.2.4. *60810900-Agronomiya* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60810900-Agronomiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida qo‘llanilayotgan zamonaviy agrotexnologiya va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi ko‘rsatkichlarini hisoblash va baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonini boshqarish;
- boshqaruv qarorini qabul qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va hayotiy faoliyat xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida ishlab chiqarish jarayonlarini monitoringini yuritish;
- kasbiy muammolar yechimini topish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:

- dala ekinlari yetishtirish va hosilini yig‘ishtirishda texnologik kartalardan foydalanish;
- dehqonchilikda yerlarni meliorativ holatini yaxshilash tadbirlarini qo‘llash;
- dehqonchilikda samarali va resurs tejamkor faoliyatni tashkil eta olish;
- dala ekinlarini yetishtirish va hosilini yig‘ib olish bo‘yicha ishlab chiqarish jarayonlari, agrotexnik tadbirlarning bajarilishi sifatini nazorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo‘llash;
- ilg‘or texnologik jarayonlardan foydalanish;
- ekinlar yetishtirishning ilmiy asoslangan tizimlarni qo‘llash va tavsiya qilish;
- yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan oqilona foydalanish;
- tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xafsizligi qoidalariga rioya qilish;
- xizmat ko‘rsatish sohasida me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olish;
- qishloq xo‘jalik sohasi uchun servis xizmati ko‘rsata olish;

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;
- agronomiya sohalari bo‘yicha ilmiy–tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;
- dala tajribalarida variantlar va takrorlanishlarni joylashtirish, kuzatuvlar o‘tkazish, ilmiy ish hisoboti uchun ma’lumotlar tayyorlash;
- ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etishda va hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;
- berilgan mavzu bo‘yicha axborotlarni to‘plash, ishlov berish, tahlil qilish va

tizimlashtirishda ishtirok etish;

- qaror qabul qilish, bilimlarni amaliyotda qo‘llash, ish samaradorligi va sifatiga javob berish;
- respublika va xorijda dala ekinlarini yetishtirishga oid chop etilgan ilmiy-texnik axborotlar manbalarini o‘rganish;
- ilmiy tadqiqot natijalari va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish;

Loyiha-texnologik faoliyatida:

- qishloq xo‘jalik ekin maydonlarini tashkil etishni loyihalashtirish uchun zaruriy boshlang‘ich materiallar to‘plash;
- dala ekinlari yetishtiriladigan yerlardan foydalanish loyihasini ishlab chiqish, biologik materiallarni va zaruriy ishlab chiqarish resurslarini tayyorlash; ekinlarini almashlab ekish sxemalarini tuzish;
- dala ekinlari yetishtirish texnologik kartasining agrotexnika qismini ishlab chiqish;
- ixtisoslikdan kelib chiqan holda mahsulotlar sifatini baholashda chet el va vatanimizda qo‘llanilayotgan usullarni amalda qo‘llay olish;
- loyihalashtirishda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalana olish ***qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.***

2. *60810900-Agronomiya* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish.

2.1.1. Milliy malaka ramkasi va Yevropa malakalar doirasining 6-darajasiga muvofiq bitiruvchi quyidagi tadqiqotchilik hamda ijtimoiy kompetensiyalar:

- ilmiy va amaliy muammolarni aniq savol va asoslangan gipoteza shaklida ifodalaydi; tadqiqot metodini tanlaydi, kuzatuv yoki tajribani rejali tashkil qiladi;
- ishonchli manbalarni izlaydi, ma’lumotlarni to‘playdi, tegishli hisoblash va tahlil usullari bilan qayta ishlaydi, natijalarning cheklovlarini baholaydi;
- fan doirasida kichik tadqiqot yoki amaliy loyihani mustaqil rejalashtiradi, ilmiy xulosa va amaliy tavsiya ishlab chiqadi, natijalarni dalillar bilan himoya qiladi;
- ko‘p tarmoqli jamoalarda hamkorlik qiladi, kasbiy muloqot va taqdimot usullaridan foydalanadi, manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini inobatga oladi;
- kasbiy etika, xavfsizlik, ijtimoiy mas’uliyat va ekologik barqarorlik talablariga rioya qilgan holda dalillarga asoslangan qaror qabul qiladi.

2.2.Kasbiy kompetensiyalar:

- dala ekinlarini yetishtirish sohasidagi kasbiy bilimlarini amalda qo‘llash;
- dala ekinlarini yetishtirish sohasidagi bilimlarni egallash;
- bilimlari va mahoratlaridan sifatni ta’minlash va boshqarishda foydalanish;
- dala ekinlarini yetishtirish sohasidagi faoliyati natijalarini to‘g‘ri baholay olish;
- dala ekinlarini yetishtirish uchun eng yuqori va sifatli mahsulot beradigan o‘simlik

turlarini, navlarini tanlay olish;

- tuproq-iqlim sharoiti va dala ekinlarining biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ekinlarni to‘g‘ri joylashtirish;
- dala ekinlarini yetishtirishda almashlab ekishni ilmiy asosda olib borish;
- dala ekinlarini yetishtirishning samarali usullarini tanlash va tashkil etish;
- mo‘l va sifatli mahsulot beradigan ekinlarni yetishtirish hamda hosilini yig‘ishtirishning texnologik xaritasini tuzish;
- dala ekinlarini ko‘paytirish va yetishtirishda resurstejamkor innovatsion texnologiyalarni qo‘llash;
- tuproqning suv, havo, issiqlik va oziq rejimlarini boshqarish;
- dala ekinlarining urug‘ini va ko‘chatlarini yetishtirish;
- dala ekinlarini yetishtirishda kasallik va zararkunandalarni aniqlash, ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va qo‘llash;
- dala ekinlarini yetishtirish va mahsulotga dastlabki ishlov berish;
- dala ekinlarini yetishtirish uchun talab etiladigan ishchi kuchi, texnika vositalari, o‘g‘itlar, urug‘lar, ekiladigan materiallar, qadoqlash idishlari va boshqa materiallarni hisoblay bilish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va agrotexnik tadbirlarni bajarilishining sifatini nazorat qilish:
- dala ekinlarini yetishtirishda texnika va texnologiyalarni tatbiq qilishda namunaviy metodikalardan va texnik vositalardan foydalanish;
- ishlab chiqarishda dala ekinlarini yetishtirish texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligini hisoblash va baholash;
- dala ekinlarini yetishtirish bo‘yicha ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarni rejalashtirish;
- dala ekinlarini zamonaviy yetishtirish texnologiyalarini va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini tahlil qilish va baholash;
- dala ekinlarining tavsiya etilayotgan yangi turlari, navlari va ularni yetishtirishning agrotexnik usullarini ishlab chiqarishga keng tatbiq etish;
- dala ekinlarini yetishtirish uchun agrotexnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha innovatsion ishlanmalar, ma’lumotlarni izlab topish va ularni ishlab chiqarishda qo‘llash;
- mehnat jamoasini boshqarishda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va zamonaviy boshqaruv usullarini qo’llash;
- dala ekinlarini yetishtirishda yer, suv, texnika va mehnat resurslaridan samarali foydalanish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish, hayot faoliyati havfsizligini ta’minlash, jarohatlanish va kasbiy kasalliklarni oldini olish bo’yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni bilish;
- ish sifati uchun mas’uliyatni his qilish, o‘z bilimlari va mahoratlaridan sifatni boshqarish bo‘yicha foydalana olish;
- innovatsion g‘oyalardan foydalanishga tayyor bo‘lish.

2.2.1. Ta’lim dasturining o‘lchanadigan yakuniy ta’lim natijalari

Kasbiy va sohaviy bilimlarni qo‘llash:

- tuproqning suv, oziqa va meliorativ holati haqidagi dala hamda laboratoriya ma’lumotlarini tahlil qiladi, ekin yetishtirish uchun asoslangan agrotexnik tavsiyani ishlab chiqadi;

- ekinning biologik xususiyatlari va hududning tuproq-iqlim sharoitlariga qarab ekin turi, navi hamda yetishtirish texnologiyasini tanlaydi va tanlovini dalillar bilan asoslaydi;

- sug‘orish, almashlab ekish va resurslarni tejash tadbirlarini rejalashtiradi, ularning

hosildorlik va atrof-muhitga ta’sirini baholaydi.

Ilmiy-tadqiqot va tahliliy kompetensiyalar:

- agronomiyadagi amaliy muammoni tadqiqot savoli va tekshiriladigan gipotezaga aylantiradi, maqsad, vazifa, nazorat omillari va tadqiqot metodlarini belgilaydi;

- dala tajribasi uchun variantlar, takrorlanishlar, kuzatuvlar jadvali va namuna olish tartibini tuzadi hamda xavfsiz kuzatuvni amalga oshiradi;

- hosildorlik va agroekologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha olingan ma’lumotlarni raqamli vositalarda tartiblaydi, tegishli tavsifiy statistika yordamida hisoblaydi va natijalarni grafikda ifodalaydi;

- turli agrotexnologik variantlar natijalarini solishtiradi, kuzatuv va o‘lchov cheklovlarini ko‘rsatadi, ilmiy manbalarga tayangan xulosalarni asoslaydi;

- dala tadqiqoti yoki ishlab chiqarish amaliyoti bo‘yicha mustaqil kichik loyiha tayyorlaydi, natijalarini yozma hisobotda umumlashtiradi va savollarga javob berib himoya qiladi;

Ijtimoiy, kommunikativ va mas’uliyat kompetensiyalari:

- dala va ishlab chiqarish topshiriqlarida jamoa a’zolari o‘rtasida vazifalarni kelishadi, bajarilishini muvofiqlashtiradi va hamkorlik natijasini baholaydi;

- agrotexnik qarorlar va tadqiqot natijalarini mutaxassis hamda fermerlarga aniq og‘zaki, yozma va vizual shaklda tushuntiradi, kasbiy terminlardan to‘g‘ri foydalanadi;

- agrotexnik tadbirlar bo‘yicha kasbiy va ekologik mas’uliyatni baholaydi, xavfsiz mehnat va tuproq hamda suv resurslarini muhofaza qilish talablariga amal qiladi;

- agroishlab chiqarishning resurs, vaqt va ijtimoiy ta’sirini solishtirib, manfaatdor tomonlar nuqtayi nazarini hisobga olgan qaror va amaliy tavsiyalarni asoslaydi;

2.3. Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga quyidagi talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetentsiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketmaketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidoriniqo‘llab quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: agronom, agrotexnolog

2.3.2 *60810900-Agronomiya* ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va	Kunduzgi ta’lim shakli	Ajratilgan kredit

faoliyat turlarining nomlari	uchun fanlarga ajratilgan soat	
Majburiy fanlar	5340	178
Tanlov fanlar	1080	36
Malakaviy amaliyotlar	660	22
Bitiruv malakaviy ishi (BMI)	120	4

2.3.3. *60810900-Agronomiya* bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		**Majburiy fanlar**	**5340**	**178**	
1.01	O'EYTB1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	DINB1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	FALB1504	Falsafa	120	4	5
1.04	XJTNB1108	Xorijiy til (ingliz, nemis, fransuz)	240	8	1,2
1.05	O'T O'SQB1204	O'zbek (rus) tili: O'zbek tilini sohada qo'llash	120	4	2
1.06	JMSB1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.07	OMTB1204	Oliy matematika	120	4	2
1.08	ANFKBKB1104	Analitik, fizkoloid va biokimyo	120	4	1
1.09	BO'FZB1108	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi	240	8	1,2
1.10	QXAKTB1204	Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar	120	4	2
1.11	QXMB1106	Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish	180	6	1
1.12	MTKB1104	Mutaxassislikka kirish	120	4	1
1.13	BIOB1204	Biologiya	120	4	2
1.14	TPAKB1308	Tuproqshunoslik va agrokimyo	240	8	3,4
1.15	DEHB1310	Dehqonchilik	300	10	3,4
1.16	MELYTB1310	Melioratsiya va yer tuzish	300	10	3,4
1.17	MEVSABB1308	Mevachilik va sabzavotchilik	240	8	3,4
1.18	QXBTMB1308	Qishloq xo'jalik biotexnologiyasi va mikrobiologiya	240	8	3,4
1.19	QXEGSUB1508	Qishloq xo'jalik ekinlari genetikasi, seleksiyasi va urug'chiligi	300	10	5,6
1.20	O'HQB1508	O'simliklarni himoya qilish	240	8	5,6
1.21	PAXTEB1508	Paxtachilik	240	8	5,6
1.22	YEXYEOTB1508	Yem-xashak yetishtirish va ozuqa tayyorlash	240	8	5,6
1.23	ESSTB1510	Ekinlarni sug'orish va sug'orish tizimlari	300	10	5,6
1.24	O'SHB1712	O'simlikshunoslik	360	12	7,8
1.25	DEYNTB1706	Dala ekinlarini yetishtirishda noan'anaviy texnologiyalar	180	6	7

1.26	QXMSSB1804	Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini standartlashtirish va sertifikatlash	120	4	8
1.27	QXMSQITB1806	Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi	180	6	8
2.00		**Tanlov fanlar**	**1080**	**36**	
2.00		*Tanlov fanlar*	**1080**	**36**	3,4,5,7,8
		Jami	**6420**	**214**	
	MALAMM 1422	Malakaviy amaliyotlar	660	22	2,4,6,7
		Bitiruv malakaviy ishi (BMI)	120	4	8
		Jami	**780**	**26**	
		HAMMASI	**7200**	**240**	

Bibliografik ma’lumotlar

UO‘K: 63+631 Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

Agronomiya, agrotexnik tadbirlar, ekinlarni yetishtirish, o‘simlik, tuproq-iqlim sharoiti, dala ekinlarining biologik xususiyatlari, almashlab ekish, texnologik xarita, tuproqning suv, havo, issiqlik va oziq rejimlari, o‘g‘itlar, urug‘lar, ekiladigan materiallar, qadoqlash idishlari, yer, suv, texnika va mehnat resurslari, innovatsion g‘oyalar, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o‘quv rejasi va fan dasturi, o‘quv jarayoni, tashkiliy boshqaruv, loyiha-texnologik, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, baholash, sifat nazorati, mustaqil ta’lim, o‘quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Qualification requirements for the bachelor 's degree program *in 60810900-Agronomy*

Tashkent - 2026

DEVELOPED AND INCLUDED:

- Tashkent State Agrarian University.

APPROVED AND IMPLEMENTED:

Approved by the Order of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan No. ____ dated "___" _____, 2026 .

CURRENTLY APPLIED:

Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

These Qualification Requirements are developed in accordance with the "State Educational Standard of Higher Education. Basic Rules", "State Educational Standard of Higher Education. Classifier of Higher Education Areas and Specialties", National and Sectoral Qualification Frameworks (Framework) of the Republic of Uzbekistan, professional standards and proposals from personnel customers and are considered official regulatory and methodological documents.

The right to officially publish Qualification Requirements in the territory of the Republic of Uzbekistan belongs to the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

TABLE OF CONTENTS

T/r		Bet
1.	*60810900-Agronomy* General description of the undergraduate education program	4
1.1.	Scope of application	4
1.1.1.	Application of qualification requirements for the educational direction *60810900-Agronomy*	4
1.1.2.	Main users of qualification requirements	4
1.2.	the field of education *60810900-Agronomy*	4
1.2.1.	the field of education *60810900-Agronomy*	4
1.2.2.	Objects of professional activities of bachelors in the field of education *60810900-Agronomy*	4
1.2.3.	Types of professional activities of bachelors in the field of education *60810900-Agronomy*	5
1.2.4.	Professional duties of bachelors in the field of education *60810900-Agronomy* ..	5
2.	the field of education *60810900-Agronomy*	6
2.1.	General competencies	6
2.2.	Professional competencies	7
2.3.	Requirements for disciplines and practices that ensure the acquisition of general and professional competencies.....	10
2.3.1.	Qualification.....	10
2.3.2	*60810900-Agronomy* Academic subjects, hours and credits allocated for the educational field.....	10
2.3.3.	*60810900-Agronomy* bachelor's degree Structure of the educational program in the field of education	10
	Bibliographic information	13
	Agreement form.....	14

1. General description of the bachelor's degree program *60810900-Agronomy*

60810900-Agronomy Bachelor's degree programs in the field of education are carried out in full-time, part-time and evening forms of education. Training in all forms of education is organized in the form of a credit-module system. The standard duration of a bachelor's degree program in full-time education is 4 years.

1.1. Scope

1.1.1. *60810900-Agronomy* Application of the educational field qualification requirement.

Qualification requirement *60810900-Agronomy* It represents a set of requirements for all higher education institutions that prepare bachelor's degrees in the field of education.

1.1.2. The main users of qualification requirements are:

–Management staff (rector, vice-rectors, heads of academic departments, deans and heads of departments) and professors of the higher education organization who are responsible for developing and updating qualification requirements, curricula and training programs for this educational area, and for the effective implementation of the educational process based on them, and who are responsible for the level of preparation of graduates within their competence;

–students of a higher education institution that is mastering the curriculum and subject programs of the educational field;

– State Attestation Commissions that assess the level of preparation of bachelor's degree graduates;

–state bodies responsible for managing education;

–bodies providing funding for higher education institutions;

– authorized state bodies responsible for accreditation and quality control of the higher education system;

–personnel customers and employing organizations and enterprises;

–applicants to higher education institutions, their parents and other interested parties.

1.2. *60810900-Agronomy* Classification of professional activities of bachelors by educational field

1.2.1. *60810900-Agronomy* areas of professional activity of bachelors in the field of education.

60810900-Agronomy Educational direction - "Agriculture" is a direction related to the educational field, which includes a set of methods and techniques for the effective use of land, water, energy and material and technical resources, the use of modern resource-saving innovative technologies in the production and cultivation of agricultural products, optimization of production processes in agriculture, increasing the productivity of agricultural crops and the quality of the products being grown, and the rational use of production tools in professional activities.

1.2.2. Objects of professional activity of bachelors in the educational direction *60810900-Agronomy* :

- state and non-state organizations, enterprises and institutions, production departments, etc.;

– land, water, energy and material and technical resources, field crops and their varieties, seeds, products; chemical and biological agents, technical equipment, agricultural machinery, agrotechnical measures; agrotechnical processes used in farming, technology for growing field crops; drawing up technological maps for growing agricultural crops; scientific and research processes; management systems and processes of agro-industrial complex enterprises, organizations, agroclusters, cooperatives, farms.

education *60810900-Agronomy* after undergoing pedagogical retraining have the right to engage in pedagogical activities in teaching general and specialized subjects determined by the

authorized educational management bodies in vocational educational institutions. With the exception of professional areas of education of the bachelor's degree.

1.2.3. ***60810900-Agronomy*** Types of professional activities **of bachelors in the field of study :**

- organizational and managerial activities .
- production and service activities;
- scientific research activity;
- project and technological activities.

1.2.4. ***60810900-Agronomy*** **professional duties of bachelors in education .**

60810900-Agronomy In accordance with the 6th qualification level of the National Qualifications Framework and the areas, objects and types of bachelor's professional activities in the field of education, a bachelor's degree graduate must be able to perform the following professional tasks:

organizational and managerial activities :

- calculation and evaluation of the efficiency indicators of the use of modern agrotechnology and technical means used in agricultural production;
- planning of material and labor resources necessary for the implementation of production processes;
- production process management;
- making a management decision;
- development of methods and mechanisms for monitoring and quality assessment of production processes using modern information technology systems;
- monitoring of production processes based on environmental protection and life safety, technical safety requirements;
- find solutions to professional problems;
- organizing the work of the performing team;
- making management decisions in the face of diversity of opinions;
- organization and management of primary production work;
- drawing up a work plan for the activities performed and its implementation, monitoring and evaluating the results of the work performed;

production and service activities :

- use of technological maps in growing and harvesting field crops;
- applying land reclamation measures in agriculture;
- be able to organize efficient and resource-saving activities in farming;
- control the quality of production processes and agrotechnical measures for growing and harvesting field crops;
- widespread use of modern information technologies, computer equipment and communication tools in practice;
- use of advanced technological processes;
- applying and recommending scientifically based crop production systems;
- development of new effective technologies and their rational use;
- compliance with the rules of protection of natural resources and safety of life activities;
- access to regulatory and legal documents in the field of service provision;
- be able to provide service for the agricultural sector;

In scientific research activities :

- conduct research work in the positions of junior research associate and assistant;
- direct participation in scientific research in the fields of agronomy ;
- placing variants and replications in field experiments, conducting observations, preparing data for a scientific work report;
- participate in the organization of scientific and practical seminars, conferences, and articles in scientific and analytical popular publications;
- participate in the collection, processing, analysis and systematization of information

on a given topic;

- decision-making, application of knowledge in practice, responsibility for the efficiency and quality of work;
- study sources of published scientific and technical information on the cultivation of field crops in the republic and abroad;
- participation in the practical implementation of scientific research results and developments;

In project-technological activities :

- collect the necessary initial materials for designing the organization of agricultural land;
- development of a project for the use of land for growing field crops, preparation of biological materials and necessary production resources; creation of crop rotation schemes;
- development of the agrotechnical part of the technological card for growing field crops;
- be able to apply in practice the methods used abroad and in our country in assessing the quality of products based on specialization;
- ***Must have the ability*** to use modern information and communication technologies in design

2. *60810900-Agronomy* Requirements for professional competencies of bachelors in the field of education

2.1. General competencies:

- knowledge of current issues of state policy, the ability to independently analyze socio-economic problems and processes;
- understand the essence of documents and works related to professional activities in one of the foreign languages, have the necessary knowledge in the natural sciences within the framework of professional activities, and be able to use them in professional activities on a modern scientific basis;
- be able to use information technologies in their professional activities, master the methods of collecting, storing, processing and using information, and be able to make independent, informed decisions in their activities;
- be able to independently acquire new knowledge, work on oneself, and organize work activities on a scientific basis;
- to have an idea of a healthy lifestyle and the need to adhere to it.

2.1.1. In accordance with the National Qualifications Framework and Level 6 of the European Qualifications Framework, graduates will have the following research and social competencies:

- expresses scientific and practical problems in the form of clear questions and well-founded hypotheses; chooses a research method, systematically organizes observations or experiments;
- searches for reliable sources, collects data, processes it with appropriate calculation and analysis methods, and assesses the limitations of the results;
- independently plans a small research or practical project within the framework of science, develops a scientific conclusion and practical recommendations, and defends the results with evidence;
- collaborates in multidisciplinary teams, uses professional communication and presentation techniques, and takes into account the needs of stakeholders;
- Makes evidence-based decisions while adhering to professional ethics, safety, social responsibility, and environmental sustainability requirements.

2.2.Professional competencies:

- apply professional knowledge in the field of field crop cultivation;
- acquire knowledge in the field of growing field crops;
- use their knowledge and skills in quality assurance and management;
- be able to correctly evaluate the results of activities in the field of growing field crops;
- be able to select plant species and varieties that yield the highest and highest quality products for growing field crops;
- proper placement of crops, taking into account soil-climatic conditions and biological characteristics of field crops;
- conducting crop rotation in field crop cultivation on a scientific basis;
- selection and organization of effective methods of growing field crops;
- drawing up a technological map for growing and harvesting crops that yield abundant and high-quality products;
- use of resource-saving innovative technologies in the propagation and cultivation of field crops;
- management of water, air, heat and nutrient regimes of the soil;
- growing seeds and seedlings of field crops;
- identify diseases and pests in the cultivation of field crops, develop and apply measures to combat them;
- cultivation of field crops and preliminary processing of products;
- be able to calculate the labor, machinery, fertilizers, seeds, planting materials, packaging containers, and other materials required to grow field crops;
- quality control of production processes and implementation of agrotechnical measures:
- use of standard methodologies and technical means in the application of techniques and technologies in the cultivation of field crops;
- calculation and assessment of the efficiency of using field crop cultivation technologies and technical means in production;
- planning of production processes and resources necessary to implement production for the cultivation of field crops;
- monitoring and quality assessment of modern field crop cultivation technologies and production processes associated with their use;
- drawing up a work plan for the activities performed, its implementation, control, and analysis and evaluation of the results of the work performed;
- Widespread introduction into production of recommended new types, varieties of field crops and agrotechnical methods of their cultivation;
- search for innovative developments and information on improving agrotechnologies for growing field crops and their application in production;
- the use of scientific organization of labor and modern management methods in managing the work team;
- efficient use of land, water, machinery, and labor resources in the cultivation of field crops;
- know how to implement measures to protect the environment, ensure occupational safety, and prevent injuries and occupational diseases;
- feel responsible for the quality of work, be able to use their knowledge and skills in quality management;
- be willing to use innovative ideas.

2.2.1. Measurable final learning outcomes of the educational program

Application of professional and industry knowledge:

- analyzes field and laboratory data on the water, nutrient, and reclamation status of the soil, and develops sound agrotechnical recommendations for crop cultivation;

- selects the type, variety, and cultivation technology of crops based on the biological characteristics of the crop and the soil and climatic conditions of the region, and justifies his

choice with evidence;

- plans irrigation, crop rotation, and resource conservation measures, and assesses their impact on productivity and the environment.

Research and analytical competencies:

- transforms a practical problem in agronomy into a research question and a testable hypothesis, determines the goal, objectives, control factors, and research methods;

- Develops options, replications, observation schedules, and sampling procedures for field experiments, and conducts safe observation;

- organizes the data obtained on productivity and agroecological indicators in digital tools, calculates using appropriate descriptive statistics, and presents the results in graphs;

- compares the results of different agrotechnological options, indicates the limitations of observation and measurement, and justifies conclusions based on scientific sources;

- prepares an independent small project on field research or production practice, summarizes the results in a written report, and defends it by answering questions;

Social, communicative and responsibility competencies:

- Agrees on tasks between team members in field and production assignments, coordinates their implementation, and evaluates the results of cooperation;

- explains agrotechnical decisions and research results to specialists and farmers clearly orally, in writing, and visually, and uses professional terminology correctly;

- assesses professional and environmental responsibility for agrotechnical activities, complies with the requirements of safe labor and protection of soil and water resources;

- justifies decisions and practical recommendations that take into account the perspectives of stakeholders, comparing the resource, time, and social impacts of agricultural production;

2.3. The following requirements for disciplines and practices that ensure the acquisition of general and professional competencies.

compulsory and elective subjects included in the curriculum in a logical sequence , through internships, and through the completion of other training and academic tasks.

Compulsory subjects are a set of subjects that provide the necessary basic knowledge and skills, aimed at acquiring general and professional competencies directly related to the bachelor's degree program.

Elective subjects are a set of subjects that are deepened based on specialization within the educational field, serve to provide additional knowledge, expand the competencies necessary for the direct specialty, and also support the student's personal interests, creative approaches, and talents.

The following internships are held in the educational field:

Professional practice - focuses on strengthening theoretical knowledge in general and specialized disciplines and combining it with practical (production) processes, and on the formation of relevant practical skills, competencies and qualifications.

2.3.1. Qualification: agronomist, agrotechnologist

2.3.2 *60810900-Agronomy* Academic subjects, hours and credits by blocks allocated for the educational field:

Names of academic subjects, blocks and types of activities	Hours allocated to subjects for full-time education	Allocated credit
Compulsory subjects	5340	178
Elective subjects	1080	36
Qualifying internships	660	22
Graduation thesis	120	4

2.3.3. *60810900-Agronomy* bachelor's degree Structure of the educational program in the field of education :

Tr	Science qualification code	Names of academic subjects, blocks and types of activities	Total load volume, in hours	Loan amount	Semester
1.00		**Compulsory subjects**	**5340**	**178**	
1.01	O'EYTB1104	The latest history of Uzbekistan	120	4	1
1.02	DINB1204	Religious studies	120	4	2
1.03	FALB1504	Philosophy	120	4	5
1.04	XJTNB1108	Foreign language (English, German, French)	240	8	1.2
1.05	OBJECTSQB1204	Uzbek (Russian) language: Using the Uzbek language in the field	120	4	2
1.06	JMSB1104	Physical culture and sports	120	4	1
1.07	OMTB1204	Higher mathematics	120	4	2
1.08	ANFKBKB1104	Analytical, physicocolloid and biochemistry	120	4	1
1.09	BO'FZB1108	Botany and plant physiology	240	8	1.2
1.10	QXAKTB1204	Information and communication technologies in agriculture	120	4	2
1.11	QXMB1106	Agricultural mechanization	180	6	1
1.12	MTKB1104	Introduction to the specialty	120	4	1
1.13	BIOB1204	Biology	120	4	2
1.14	TPAKB1308	Soil science and agrochemistry	240	8	3.4
1.15	ADHD1310	Farming	300	10	3.4
1.16	MELYTB1310	Reclamation and land development	300	10	3.4
1.17	MEVSABB1308	Fruit and vegetable growing	240	8	3.4
1.18	QXBTMB1308	Agricultural biotechnology and microbiology	240	8	3.4
1.19	QXEGSUB1508	Genetics, breeding and seed production of agricultural crops	300	10	5.6
1.20	OHQB1508	Plant protection	240	8	5.6
1.21	PAXTEB1508	Cotton farming	240	8	5.6
1.22	YEXYEOTB1508	Forage cultivation and feed preparation	240	8	5.6
1.23	ESSTB1510	Crop irrigation and irrigation systems	300	10	5.6
1.24	OSHB1712	Plant science	360	12	7.8
1.25	DEYNTB1706	Non-traditional technologies in the cultivation of field crops	180	6	7
1.26	QXMSSB1804	Standardization and certification of agricultural products	120	4	8
1.27	QXMSQITB1806	Agricultural product storage and processing technology	180	6	8
2.00		**Elective subjects**	**1080**	**36**	
2.00		*Elective subjects*	**1080**	**36**	3,4,5,7,8
		Total	**6420**	**214**	
	MALAMM 1422	Qualifying internships	660	22	2,4,6,7
		Graduation thesis	120	4	8
		Total	**780**	**26**	
		ALL	**7200**	**240**	

Bibliographic information

UOC: 63+631 Group T 55

OKS 01.040.01

Key words:

Agronomy, agrotechnical measures, crop cultivation, plant, soil-climatic conditions, biological properties of field crops, crop rotation, technological map, water, air, heat and nutrient regimes of the soil, fertilizers, seeds, planting materials, packaging containers, land, water, technical and labor resources, innovative ideas, type of professional activity, competence, educational direction, object of professional activity, field of professional activity, basic curriculum and science program of the bachelor's degree, educational process, organizational management, project-technological, qualification practice, graduation qualification work, assessment, quality control, independent education, block of academic disciplines, content, higher education institution, educational process, production, design, scientific and research processes .